



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 10 | pp. 438-444 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TAQDIM ETISHNING KONSEPTUAL ASOSI: MAZMUNI VA AHAMIYATI



**Kozimjonov Abrorbek**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Buxgalteriya hisobi" kafedasi dotsenti,

PhD, dotsent. a.kozimjonov@tsue.uz

ORCID:0000-0001-5217-6559

**Annotatsiya:** Maskur maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi mazmuni, mohiyati va ahamiyatining o'ziga xos xususiyatlari olib berilgan. Mavzuga taaluqli bo'lgan xalqaro buxgalteriya hisobiga oid normativ hujjatlar, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning izlanishlari tadqiq etilgan va xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy hisobot, MHXS, aktiv, majburiyat, kapital, daromad, xarajat.

**Аннотация:** В статье раскрываются особенности содержания, сущности и значения концептуальных основ представления финансовой отчетности по международным стандартам финансовой отчетности (МСФО). Исследования экономистов были изучены в рамках нормативных документов, связанных с международным бухгалтерским учетом, разработаны выводы и предложения по теме.

**Ключевые слова:** финансовая отчётность, МСФО, актив, обязательство, капитал, доходы, расходы.

**Annotation:** The article reveals the features of the content, essence and meaning of the conceptual foundations for presenting financial statements according to international financial reporting standards (IFRS). The studies of economists were studied within the framework of regulatory documents related to international accounting, conclusions and proposals on the topic were developed.

**Key words:** financial statements, IFRS, asset, liability, capital, income, expenses.

### KIRISH

Moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davrdagi moliyaviy ma'lumotlarini va moliyaviy natijalarini, odatda yillik yoki har chorakda oshkor qilish uchun foydalanadigan standart bo'lgan buxgalteriya hisobining asosiy ustuni bo'lib hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning qancha miqdorda pul mablag'lari borligini, ushbu pul mablag'lari manbasi va qayerga sarflanishi kerakligini tushunish uchun juda muhimdir bo'lgan axborat manbasi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati uchun

faktlarga asoslangan biznes qarorlarini qabul qilishda ham muhim ahamiyatga egadir. Moliyaviy hisobot orqali yangi investorlar yoki tijorat banklari, moliya muassasalari tomonidan investitsiya kiritish yoki qarz berish bo'yicha zarur ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shunday ekan, moliyaviy hisobotni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi mazmuni, mohiyati va ahamiyati borasida ilmiy tadqiqot o'tkazish dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, tanlangan tadqiqot mavzusi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi va 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga darajada xizmat qiladi[1,2].

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Mamlakatda har qanday yangi hisob tizimi tashkil etilayotganda hisob tizimi bo'yicha konseptual asos shakllantirilib, shu asosda hisob standartlari ishlab chiqiladi. Konseptual asos moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun mo'ljallangan nazariy tamoyillar yig'indisi hisoblanadi. Ushbu nazariy tamoyillar yangi hisob standartlarini ishlab chiqishga va amaldagi standartlarni yanada takomillashtirishga hizmat qiladi. MHXS Kengashi Konseptual asosni 1989 yilda ishlab chiqgan va 2010 yilda o'zgartirishlar kiritilgan. 2018 yilda yangi tahriri ishlab chiqilgan va rasmiy taqdim etgan.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashi (International Accounting Standards Board) tomonidan e'lon qilingan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asos"ga muvofiq konseptual asosga quyidagicha ta'rif berilgan[3]:

Konseptual asos umumiyligi maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish maqsadi va tamoyillarini tavsiflaydi. Konseptual asosning maqsadi quyidagilardan iborat:

- izchil tamoyillarga asoslangan MHXS standartlarini ishlab chiqishda Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashiga ko'mak berish;
- muayyan operatsiya yoki boshqa hodisaga nisbatan qo'llanadigan standart mavjud bo'limganda yoki muayyan standartda hisob siyosatini tanlashga ruxsat berilganda, moliyaviy hisobot tayyorlovchilarga ko'mak berish;
- standartlarni tushunish va talqin qilishda barcha taraflarga ko'mak berish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos muvofiq:

Konseptual asos - bu O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan va foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish asosini tashkil etuvchi tushunchalarni belgilab beradi. Mazkur konsepsiyaning maqsadi quyidagilarga yordam berishdan iborat:

- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini tartibga soluvchi davlat organi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga — buxgalteriya hisobi milliy standartlarini (BHMS) rivojlantirish va ularni qayta ko'rib chiqishda;
- moliyaviy hisobotni tayyorlovchi shaxslarga — BHMS dan foydalanishda;
- auditorlarga — moliyaviy hisobotlarni BHMS mos kelishi bo'yicha xulosalarni tayyorlashda;

- moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga – moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda[4].

Iqtisodchi olma Sh.Ergasheva fikricha, moliyaviy hisobotning konseptual asoslari (ingliz tilidan "Conceptual Framework for financial reporting yoki shunchaki 'IFRS Framework") barcha MHXS standartlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. MHXSning konseptual asoslari o'z-o'zidan standart emas, lekin u moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo'yicha ba'zi tavsiyalarni o'z ichiga olgan holda juda muhimdir. Konseptual asoslardagi o'zgarishlar bironta standart muayyan operatsiya yoki voqeа uchun qo'llanmasligi vaziyatlarida MHXS qo'llashga ta'sir qilishi mumkin deb ta'kidlaydi [5].

Xorijlik iqtisodchi olim T.Yu. Druzhilovskaya fikriga ko'ra "MHXS tizimida moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari buxgalteriya tizimida moliyaviy hisobot tamoyillari uchun o'ziga xos yo'riqnomalar sifatida tanlangani beziz emas. Darhaqiqat, Rossiya Federatsiyasi Hukumatining qarorlariga muvofiq, barcha ichki buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar qoidalariga mos kelishi asosida isloh qilinmoqda va shuni e'tirof etish kerakki, "Rossiyaning bozor iqtisodiyotida buxgalteriya hisobi kontseptsiyasi" o'sha davrda MHXS tizimida amalda bo'lgan "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual asoslari" ga asosan yaqin edi deb" ta'kidlaydi [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini tashkil qilish va bajarish jarayonida buxgalteriya hisobi usullari asosida ekpertlar baxosi, qiyosiy tahlil, kontent va invent tahlil, tizimli va omilli tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari - bu axborot foydalanuvchilarining axborotga bo'lgan ehtiyojini umumlashtirishdan kelib chiqib, moliyaviy hisobotning maqsadi, axborotlarning sifat tavsifi, ularni shakllantirishda roya qilinadigan qoida va prinsiplar hamda moliyaviy hisobot elementlarini tavsiflovchi fundamental negizdir.

Moliyaviy hisobotning konseptual asoslarining ijobjiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- muhimligi yoki ahamiyatsizligidan qat'iy nazar yuzaga kelgan muhokamali hisob muammolarini standartlarga kiritish holatlarining oldi olinadi.
- standartlar ishlab chiqilishida siyosiy aralashuvlar ta'siridan himoya qiladi.
- konseptual asosga ega bo'limgan hisob tizimlarining ba'zilarida foya yoki zarar orqali yondashilgan standartlar yoki faqat sof aktivga asoslangan yondashuv orqali standartlar ishlab chiqilgan.
- konseptual asos bu ikki yondashuvni o'zida birlashtiradi.

Konseptual asosning maqsadi quyidagilardan iborat:

- izchil tamoyillarga asoslangan MHXS standartlarini ishlab chiqishda Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashiga ko'mak berish;
- muayyan operatsiya yoki boshqa hodisaga nisbatan qo'llanadigan standart mavjud bo'limganda yoki muayyan standartda hisob siyosatini tanlashga ruxsat berilganda, moliyaviy hisobot tayyorlovchilarga ko'mak berish;
- standartlarni tushunish va talqin qilishda barcha taraflarga ko'mak berish.

**1-jadval****Konseptual asos tarkibiy qismlari**

<b>№</b>	<b>Konseptual asosdagi bo'lim nomlari</b>
1-bob	Umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotning maqsadi
2-bob	Foydali moliyaviy ma'lumotning sifat tavsiflari
3-bob	Moliyaviy hisobotlar va hisobot beruvchi tashkilot
4-bob	Moliyaviy hisobot elementlari
5-bob	Tan olish va tan olishni bekor qilish
6-bob	Baholash
7-bob	Ma'lumotni taqdim etish va yoritib berish
8-bob	Kapital va kapitalni saqlab turish konsepsiyalari

Konseptual asosning 1-bobida Umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotning maqsad va vazifalari keltirilgan. Kompaniyalar tomonidan taqdim etadigan moliyaviy hisobotlarni maqsadi mavjud mulkdorlar va potensial investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlarga ushbu kompaniyaning resurslar bilan ta'minlash to'g'risida qaror qabul qilishda foydali bo'ladigan hisobot beruvchi kompaniya to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotni taqdim etishdan iboratdir.

Konseptual asosning 2-bobida moliyaviy hisobot ma'lumotlarida foydalanuvchilar uchun foydali bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan eng muhim sifat tavsiflari ko'rsatib o'tilgan. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari foydali bo'lishi uchun, u o'rini bo'lishi va u nimani taqdim etishga mo'ljallangan bo'lsa, shuni ro'yi-rost taqdim etishi lozim. Agar moliyaviy hisobot ma'lumotlari qiyosiy, tekshiriluvchan, o'z vaqtida taqdim etilgan va tushunarli bo'lsa, uning foydaliligi oshadi.

Konseptual asosning 3-bobida Moliyaviy hisobot maqsadi yoritilgan. Moliyaviy hisobotning maqsadi hisobot beruvchi tashkilotning aktivlari, majburiyatları, xususiy kapitali, daromadlari va xaratatlari (ularning natijasi foya yoki zarari) to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotni taqdim etishdan iboratdir. Bu moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun hisobot beruvchi tashkilotning kelgusi sof pul mablag'lari kirimi bo'yicha istiqbolini baholashda va tashkilot rahbariyatining uning iqtisodiy resurslarini mas'uliyatli boshqarish bo'yicha faoliyatini baholashda muhim o'rinni egallaydi.

Konseptual asosning 4-bobida Konseptual asosga ko'ra moliyaviy hisobotning elementlari quyidagicha tasniflanadi:

Aktiv - Oldingi hodisalar natijasida tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan mavjud iqtisodiy resurs. Iqtisodiy resurs bu iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega bo'lgan huquq hisoblanadi.

Majburiyat - Tashkilotning oldingi hodisalar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy resursni o'tkazish bo'yicha mavjud javobgarligi.

Xususiy kapital - Tashkilotning majburiyatlari chegirilgandan keyin barcha uning aktivlaridagi qoldiq ulush.

Daromadlar - Xususiy kapitalga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari bilan bog'liq bo'lмаган xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan aktivlarning oshishi yoki majburiyatlarning kamayishi.

Xarajatlar - Xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari egalariga taqsimlashlar bilan bog'liq bo'lмаган xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi.

### **1-rasm. Moliyaviy hisbotning elementlari.**

Foyda yoki zarar - Tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari va ularga taqsimlashlar. Xususiy kapitalning oshishi yoki kamayishiga olib kelmaydigan aktivlar yoki majburiyatlarni ayriboshlash.

Konseptual asosning 5-bobida moliyaviy hisobot elementlarini tan olish va tan olishni bekor qilish bo'yicha tartib qoidalar belgilagan. Aktivlar yoki majburiyatlarni ta'rifiga javob beradigan moddalar moliyaviy hisobotda to'g'ridan-to'g'ri aks ettirilmaydi. Buning uchun ushbu moddalar tan olish mezonlariga javob berishi lozim. Tan olish - bu moliyaviy hisobot elementlaridan biri ta'rifini qanoatlantiradigan moddani moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotga yoki foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotlarga kiritish uchun identifikatsiyalash jarayoni bo'lib hisoblanadi.

Konseptual asosning 6-bobida moliyaviy hisobot elementlarini baholash tartibi tushuntirilgan. Moliyaviy hisobotda tan olinadigan elementlar pul ifodasida taqdim qilinadi. Bu tegishli baholash asosini tanlashni talab etadi. Aktiv yoki majburiyatlarga nisbatan baholash asosini qo'llash mazkur aktiv yoki majburiyat va ular bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar qiymatini belgilaydi.

Baholash asoslari boshlang'ich qiymat, o'rnini qoplashning joriy qiymati, joriy qiymat, haqqoniy qiymat, foydalanish qiymati va ijro etish qiymatini o'z ichiga oladi. Foydali moliyaviy ma'lumotning sifat tavsiflari va sarflarga nisbatan cheklovni e'tiborga olgan holda turli aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar uchun turli baholash usullari tanlanishi mumkin.

Konseptual asosning 7-bobida Moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarni samarali yetkazilishi moliyaviy hisobotni o'rinni va ro'y-i-rost taqdim etilishiga xizmat qiladi va uning foydalilagini oshiradi. Shuning uchun, moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berishga nisbatan quyidagi maqsadlar qo'yiladi:

- e'tiborni qoidalarga emas, ma'lumotni taqdim etish va yoritib berish maqsadlari va tamoyillariga qaratish;

- ma'lumotni o'xhash moddalarni guruhash va o'zaro o'xhash bo'limgan moddalarni ajratishga imkon beradigan tarzda tasniflash;

- ma'lumotni uni tushunish yoki katta miqdorda keraksiz tafsilotlarni kiritish oqibatida yoxud samarasiz jamlash oqibatida murakkab bo'lmaydigan tarzda jamlash.

Konseptual asosning 8-bobiga ko'ra kapitalning 2 konsepsiysi mavjud:

- Moliyaviy kapitalni saqlab turish
- Jismoniy kapitalni saqlab turish

Moliyaviy kapitalni saqlab turish. Mazkur konsepsiya asosan faqat davr oxiriga sof aktivlarning puldagi qiymati davr davomida mulkdorlar foydasiga taqsimlash va ular tomonidan badallar ta'siri istisno qilingandan keyin davr boshiga sof aktivlarning puldagi qiymatidan oshgan taqdirda foyda olinadi. Moliyaviy kapitalni saqlab turish nominal pul birliklarida yoki doimiy xarid qilish qobiliyati birliklarida baholanishi mumkin.

Moddiy kapitalni saqlab turish. Mazkur konsepsiya asosan faqat davr oxiriga tashkilotning ishlab chiqarish quvvati davr davomida mulkdorlar foydasiga taqsimlanganidan so'ng va ular tomonidan badallar ta'siri istisno qilingandan keyin davr boshiga jismoniy ishlab chiqarish quvvatidan oshgan taqdirda foyda olinadi

1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" umumiyligi maqsaddagi moliyaviy hisobotni taqdim etish asoslarini belgilab beradi. U moliyaviy hisobotni taqdim etishga nisbatan umumiyligi talablarni, uning tuzilishiga oid ko'rsatmalarni hamda uning mazmuniga doir minimal talablarni belgilaydi.

Moliyaviy hisobotning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo'ladigan tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul mablag'lar harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat. Shuningdek, bu hujjat kompaniya rahbariyati tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini ham aks ettiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ma'lum bir vaqt davomida kompaniya faoliyati natijasiga qarab rahbariyat qarorlar qabul qilish va boshqa maqsadlarga erishish uchun, umumiyligi maqsaddagi moliyaviy hisobotlarda quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish zarur:

aktivlar;

majburiyatlar;

xususiy kapital;

daromad va xarajatlar;

daromad va xarajatning hosilasi bo'lgan foyda yoki zararlar;

dividentlar taqsimlanishi;

pul mablag'lari harakati;

mulkdor sifatida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar bilan amalgalash oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar, bunda mulkdorlarning ulushi va ularga taqsimlangan summalar haqidagi ma'lumotlar alohida-alohida taqdim etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'plami. // ASSA . IFRS/IAS.., 2019 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3400.
5. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
6. Т.Ю. Дружиловская / Международный бухгалтерский учет, 2017, т. 20, вып. 10, стр. 596–610 <http://fin-izdat.ru/journal/interbuh/>.
7. Kozimjonov A. Problems with Accounting of Borrowing Costs Capitalized in Compliance with the IFRS and the Ways to Solve them // The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems // 2021/12/15. 366-369-p.
8. Jo'rayev N.Yu. Moliyaviy hisobot. O'quv qo'llanma. TDIU. 2007y. T.: 15 b. / Joraev N.Yu. Financial Reporting. Study guide. TDIU. 2007 y. T.: 15 p.
9. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarkand: SamISI, – 421 b.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

